Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.....	1020
Valikulov Sherzod Zaynitdinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSIYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....	1029
Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	1033
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi	
OLIY TA'LIMDA GENDER TENGLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1039
Xaydarova Sayyora	
ANALYZING THE COMPETITIVE ADVANTAGES OF SOUTH KOREA IN GLOBAL MICE TOURISM: HISTORICAL AND CULTURAL DIMENSIONS.....	1043
Ortikova Sabohat, Gulomova Mukhlisa, Ochilova Hilola Farmonovna	
MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	1050
Usmanova Gulida Valiyevna	
ETHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM: BALANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND MORAL RESPONSIBILITY.....	1055
Gulbakhor Sattarovna Abdullakhanova	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1062
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1068
Urazov Sadulla Shodiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS-NAZORATNING ROLI.....	1074
Zokirov Ismoiljon Ibroximovich	
AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI	1078
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
KO'MIR UCHUVCHI KULI ASOSIDAGI FLY ASH BETON VA GEOPOLIMER MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN IQTISODIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	1083
Muradov Botir Xayat	
КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1091
Рахимова Манзура Хамид кизи	
DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	1098
Sidikov Dilmurod	
MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1102
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1106
Рахимова Тамила Баходур кизи	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1113
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1120
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1125
Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi	
O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH	1129
Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi, Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi	
O'ZBEKISTONDA KREDIT VA MOLIYAVIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1135
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
O'ZBEKISTON FRANCHAYZING BRENDLARINING XALQARO BOZORLARDA IMIJINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY BRENDUKLAR YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI	1140
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQANING INVESTITSIYA OQIMLARI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK TAHLILI	1147
G'oyibnazarov Muhammad Xamidbekovich	
O'ZBEKISTON AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI VA IMKONIYATLARI	1152
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1157
Xakimov Akbar Anvarovich	



TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1162
Atamuradov Bozorboy Berdimuratovich	
O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	1168
Sayitbayev Shermirza Datkamirzaevich	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ БЮДЖЕТОВ ФТИЗИАТРИЧЕСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ОПЛАТЕ ПО КЛИНИКО-ЗАТРАТНЫМ ГРУППАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1173
Эрматов Зоҳид Шавкатович	
SUSTAINABLE TOURISM IN KARAKALPAKSTAN: LINKING CULTURE, COMMUNITIES, AND ECOLOGY.....	1179
Indira Ermekebaeva	
TARIFLASH VA REZERVLAHNING ILMIY-AMALIY MODELI (O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN).....	1184
Maxmudov Komoliddin Rozmetovich	
XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	1188
Akmalova Ziyoda Doniyorovna	
ECONOMIC EFFECTS OF GASTRONOMIC TOURISM: AN ANALYSIS OF TOURISTS' FOOD EXPENDITURE PATTERNS.....	1193
Iroda Abdieva G'ayrat kizi	
WAYS OF IMPROVING AGRITOURISM IN UZBEKISTAN	1198
Ruxangiz Mirfayzovna Mavlonova, Istamkhuja Olimovich Davronov	
TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI.....	1203
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1208
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISH: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.....	1213
Zokirov Fayzullo Maxamatovich	
ЦИФРОВОЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПРОДВИЖЕНИЯ БРЕНДА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА МЕЖДУНАРОДНОМ ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ.....	1219
Суюнова Камилла Бахромовна, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли	
ТЕОРИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО ВЫБОРА: ОБЗОР КЛАССИЧЕСКИХ ПАРАДИГМ, МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ПОДХОДОВ И СОВРЕМЕННЫХ ВЫЗОВОВ.....	1223
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К МОНЕТАРНОЙ ПОЛИТИКЕ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ИНФЛЯЦИЮ И ЗАНЯТОСТЬ	1227
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Асадова Шоҳида Азаматовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TAKOFUL SUG'URTA FONDLARINI SHAKLLANTIRISH.....	1232
Alimov Sherzod Choriyevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1238
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI.....	1242
Xalikov Baxrom Shomurovich	
O'ZBEKISTON SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA ENERGIYA TA'SIRINI QISQA VA UZOQ MUDDATLI BAHOLASH SAMARASI	1247
Jabbarov Nurbek Atanazarovich	
IQTISODIYOTDA ENERGIYA TIZIMINING TUTGAN O'RNINI MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING NAZARIY AHAMIYATI	1252
Kuralbayev Jo'rabek Oybekovich	



DAVLAT TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	1256
Salamov Islom Tashkazakovich	
МЕХАНИЗМ ОПТИМИЗАЦИИ СТРУКТУРЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА.....	1263
Касимова Наргиза Сабитджановна	
SIRKULYAR BIZNES-MODELLARNI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI EVOLYUTSIYASI.....	1268
Isamuxamedov Boxodir Baxramovich	
HUDUDIIY MARKETING KONSEPSIYASI ASOSIDA NAVOIY VILOYATINING EKOTURISTIK RESURSLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1274
Shodiyev Sanjar Ruzukulovich, Abdurahmonova Shahlo Serali qizi	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	1281
Sabirov Xamid Qo'ziboyevich	
HUDUDLARNI BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1285
N.Bekmurodov	
KORXONALAR INVESTITSION VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	1291
Gafurova Umida Fatixovna	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI	1296
Fayziyev Orifjon Olimovich	
РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ И ЦИФРОВЫХ НАВЫКОВ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА.....	1302
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTON VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR QIYOSIY TAHLILI	1310
Mangliyev Bexzod To'raboy o'g'li	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINING TRANSFORMATSIYASI	1315
Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich	



RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINING TRANSFORMATSIYASI

Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich

TDSHU o'qituvchisi

ORCID: 0009-0002-4431-6659

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamlashtirish jarayonlarining tijorat banklari faoliyatiga ta'siri va transformatsiya yo'nalishlari tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, masofaviy xizmatlar ulushining ortishi, fintex texnologiyalarining joriy etilishi hamda boshqaruv tizimining avtomatlashtirilishi banklar faoliyatining yangi bosqichga o'tishini taqozo etmoqda. Tadqiqotda bank transformatsiyasining nazariy asoslari, uning moliyaviy samaradorlik, operatsion xarajatlar va risk-menejment tizimiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, raqamlashtirishning aktivlar sifati va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlariga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, bank transformatsiyasi, tijorat banklari, fintex, aktivlar sifati, moliyaviy barqarorlik, risk-menejment, operatsion samaradorlik.

Abstract. This article examines the impact of digitalization processes on the activities of commercial banks and the main directions of their transformation. In the context of the digital economy, modernization of banking services, the increasing share of remote services, the implementation of fintech technologies, and the automation of management processes are driving the banking sector toward a new stage of development. The study explores the theoretical foundations of banking transformation and analyzes its impact on financial efficiency, operational costs, and risk management systems. Particular attention is paid to the effect of digitalization on asset quality and financial stability indicators.

Key words: digitalization, banking transformation, commercial banks, fintech, asset quality, financial stability, risk management, operational efficiency.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние процессов цифровизации на деятельность коммерческих банков и направления их трансформации. В условиях цифровой экономики модернизация банковских услуг, рост доли дистанционного обслуживания, внедрение финтех-технологий и автоматизация управленческих процессов обуславливают переход банковской системы на качественно новый этап развития. В исследовании рассматриваются теоретические основы банковской трансформации, а также её влияние на финансовую эффективность, операционные издержки и систему риск-менеджмента. Особое внимание уделено воздействию цифровизации на качество активов и показатели финансовой устойчивости банков.

Ключевые слова: цифровизация, банковская трансформация, коммерческие банки, финтех, качество активов, финансовая устойчивость, риск-менеджмент, операционная эффективность.

KIRISH

XXI asrda jahon iqtisodiyotida raqamlashtirish jarayonlari moliya sektorining eng muhim transformatsion omiliga aylandi. So'nggi yillarda global miqyosda raqamli bank xizmatlari hajmi keskin oshdi. Xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko'ra, dunyo bo'yicha bank mijozlarining 70 foizdan ortig'i masofaviy bank xizmatlaridan foydalanmoqda, rivojlangan davlatlarda esa ushbu ko'rsatkich 85–90 foizga yetgan. Mobil bank foydalanuvchilari soni yiliga o'rtacha 8–10 foiz sur'at bilan o'smoqda.

Raqamli to'lovlar hajmi ham barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Global miqyosda naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushi ayrim davlatlarda 60–80 foizdan oshgan. Fintex kompaniyalari investitsiyalari hajmi oxirgi o'n yillikda bir necha barobarga ortib, yuzlab milliard dollar miqdoriga yetdi. Bu holat tijorat banklarini o'z biznes modellarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda.

Raqamlashtirish tijorat banklari faoliyatining barcha yo'nalishlariga — kreditlash jarayoni, risklarni baholash, mijozlarga xizmat ko'rsatish, ichki nazorat va operatsion boshqaruv tizimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, sun'iy intellekt va "big data" texnologiyalaridan foydalanish kredit riskini baholash aniqligini oshirib,



muammoli kreditlar ulushini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, operatsion xarajatlarning qisqarishi bank rentabelligi ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etmoqda.

Shu jihatdan, raqamlashtirish sharoitida tijorat banklari faoliyatining transformatsiyasi jarayonlarini ilmiy asosda o'rganish, uning moliyaviy samaradorlik va aktivlar sifati ko'rsatkichlariga ta'sirini tahlil qilish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamlashtirish jarayonlarining bank tizimiga ta'siri so'nggi yillarda xalqaro moliyaviy institutlar va yetakchi iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilmoqda. Xususan, World Bank tadqiqotlarida raqamli moliyaviy xizmatlar moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va bank tizimi samaradorligini oshirish omili sifatida baholanadi [1]. Hisobotlarda ta'kidlanishicha, raqamli texnologiyalar kreditlash jarayonida axborot asimmetriyasini kamaytirib, risklarni aniqroq baholash imkonini beradi.

Bank for International Settlements (BIS) materiallarida bank sektorida raqamli transformatsiya moliyaviy vositachilik modelini o'zgartirayotgani, ayniqsa fintex kompaniyalari bilan raqobat kuchaygani qayd etiladi [2]. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik va texnologik risklar bank tizimi uchun yangi tahdid sifatida baholanadi.

International Monetary Fund (IMF) ekspertlari raqamlashtirish va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, raqamli kreditlash platformalari aktivlar sifati monitoringini yaxshilashini, biroq algoritmik xatolar kredit riskini oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi [3].

Nazariy jihatdan bank transformatsiyasi masalasi moliyaviy vositachilik nazariyasi doirasida ham yoritilgan. Frederic Mishkin bank tizimining texnologik o'zgarishlarga moslashuvi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti ekanligini asoslaydi [4]. Shuningdek, Douglas W. Diamond banklarning axborot yig'ish va risklarni diversifikatsiya qilishdagi ustunliklari raqamli muhitda transformatsiyalanishini ilmiy asoslab beradi [5].

Raqamlashtirish va bank samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik masalasini empirik jihatdan o'rgangan tadqiqotchilardan biri Thorsten Beck bo'lib, uning izlanishlarida texnologik innovatsiyalar bank rentabelligi va bozor raqobatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [6].

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish bank tizimining institutsional tuzilmasi, risk-menejment mexanizmlari va moliyaviy barqarorligiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan, milliy bank tizimida raqamli transformatsiyaning aktivlar sifati ko'rsatkichlariga ta'siri masalasi yetarlicha empirik o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot tizimli yondashuv asosida amalga oshirildi hamda tijorat banklarida raqamli transformatsiya jarayonlari kompleks iqtisodiy hodisa sifatida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida mantiqiy abstraksiya, ilmiy umumlashtirish, komparativ tahlil hamda statistik ma'lumotlarni dinamik tahlil qilish usullaridan foydalanildi. O'zbekiston bank tizimiga oid rasmiy statistik ma'lumotlar asosida raqamli xizmatlar ko'rsatkichlari va moliyaviy samaradorlik indikatorlari o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Tadqiqot natijalari nazariy yondashuvlar va amaliy ko'rsatkichlar integratsiyasi asosida shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Transformatsiya atamasi lotincha transformare — "o'zgartirish", "qayta shakllantirish" ma'nosini anglatadi. Iqtisodiy mazmunda transformatsiya tizimning tashqi va ichki omillar ta'sirida sifat jihatdan yangi rivojlanish bosqichiga o'tishini bildiradi. Bu jarayon oddiy modernizatsiya yoki texnik yangilanishdan farqli ravishda, tizimning tarkibiy, funksional va institutsional asoslarini tubdan o'zgartirishni nazarda tutadi. Shu bois transformatsiya miqdoriy emas, balki sifat o'zgarishlari bilan tavsiflanadi.

Bank tizimi nuqtayi nazaridan transformatsiya — bu tijorat banklarining an'anaviy faoliyat modelidan raqamli va platformaviy modelga o'tish jarayonidir. Bu jarayon xizmat ko'rsatish kanallarining kengayishi, boshqaruv mexanizmlarining avtomatlashtirilishi, risk-menejment tizimining takomillashuvi hamda mijoz bilan o'zaro munosabatlarning yangi shaklga o'tishini o'z ichiga oladi. Demak, bank transformatsiyasi faqat texnologik yangilanish emas, balki strategik boshqaruv, tashkiliy tuzilma va biznes-model darajasidagi o'zgarishlar majmuasidir.

Bank transformatsiyasining nazariy asoslarini bir necha iqtisodiy konsepsiyalar orqali izohlash mumkin. Avvalo, moliyaviy vositachilik nazariyasiga ko'ra, banklar iqtisodiyotda mablag'larni samarali taqsimlash, axborot asimmetriyasini kamaytirish va risklarni diversifikatsiya qilish funksiyasini bajaradi. Raqamlashtirish jarayonlari ushbu funksiyalarni yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi. Masalan, kredit scoring tizimlari, katta hajmdagi ma'lumotlarni (big data) qayta ishlash va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish qarz oluvchilar



to'g'risidagi ma'lumotlarni chuqurroq tahlil qilish imkonini yaratadi. Natijada kredit riskini baholash aniqligi oshadi va aktivlar sifati yaxshilanadi.

Institutsional yondashuv bank transformatsiyasini tashkiliy tuzilma, boshqaruv modeli va normativ-huquqiy muhit o'zgarishi bilan bog'laydi. Raqamlashtirish banklarning ichki jarayonlarini qayta tashkil etishni, yangi kompetensiyalarni shakllantirishni va korporativ madaniyatni moslashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga, davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan siyosati ham bank transformatsiyasining muhim institutsional omili hisoblanadi.

Innovatsion rivojlanish nazariyasiga ko'ra, texnologik yangiliklar iqtisodiy o'sish va raqobat ustunligining asosiy manbai sanaladi. Bank sektorida fintex texnologiyalari, blokcheyn, masofaviy identifikatsiya tizimlari va mobil ilovalar banklarning bozor pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Raqamli transformatsiya natijasida banklar an'anaviy filialga asoslangan modeldan platformaviy va ekotizimga asoslangan modelga o'tmoqda. Bu esa bank faoliyatining ko'lamini kengaytirish va xizmatlar diversifikatsiyasini ta'minlash imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Tijorat banklarida transformatsiyaning asosiy yo'nalishlari¹

Yuqoridagi rasmda tijorat banklarida transformatsiyaning asosiy yo'nalishlari kompleks tizim sifatida tasvirlangan. Unda texnologik transformatsiya bank infratuzilmasini raqamlashtirish va jarayonlarni avtomatlashtirishni anglatadi, tashkiliy transformatsiya esa boshqaruv modeli va ichki tuzilmaning moslashuvini ifodalaydi. Mahsulot transformatsiyasi bank xizmatlarining yangi raqamli shakllarini yaratishni nazarda tutadi, risk-menejment transformatsiyasi esa xavflarni baholash va monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan. Mijozlarga integral xizmatlar yo'nalishi esa barcha xizmat kanallarining o'zaro uyg'unlashuvi orqali qulay va uzluksiz xizmat ko'rsatishni ta'minlashni bildiradi. Ushbu yo'nalishlar o'zaro bog'liq holda bank faoliyatining sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishini ta'minlaydi.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida raqamlashtirish jarayonlari sezilarli sur'atda rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2020-yildan boshlab keskin oshgan va millionlab mijozlarni qamrab olgan. Mobil ilovalar orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalar umumiy to'lov tranzaksiyalarining asosiy qismini tashkil etmoqda.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushi ham barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Plastik kartalar soni va elektron to'lovlar hajmi yilma-yil ortib bormoqda. To'lov infratuzilmasining kengayishi natijasida bank kartalari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar hajmi bir necha barobarga oshdi. Bu bank xizmatlarining raqamli shaklga o'tish jarayonini jadallashtirdi.

Shuningdek, banklarning IT-infratuzilmaga yo'naltirayotgan investitsiyalari hajmi ortmoqda. Masofaviy identifikatsiya, onlayn kreditlash va mobil banking xizmatlari keng joriy etildi. Natijada mijozlarga xizmat ko'rsatish tezligi oshib, operatsion xarajatlar qisqarish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Raqamlashtirish kreditlash jarayonlariga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Onlayn kredit arizalarini ko'rib chiqish muddati sezilarli darajada qisqargan, kredit riskini baholash jarayonlari avtomatlashtirilgan. Bu aktivlar sifati monitoringini kuchaytirish va muammoli kreditlar ulushini nazorat qilish imkonini bermokda.

Yuqorida ko'rib chiqilgan nazariy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida transformatsiya jarayoni, avvalo, raqamli infratuzilmaning kengayishi va xizmat ko'rsatish kanallarining diversifikatsiyasi orqali namoyon

¹ Muallif ishlanmasi



bo'ladi. Moliyaviy vositachilik nazariyasi, institutsional yondashuv hamda raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi bank faoliyatining texnologik asosda qayta shakllanishini zaruriy bosqich sifatida talqin qiladi.


Nazariy jihatdan transformatsiya jarayoni dastlab miqdoriy o'zgarishlarda — ya'ni raqamli xizmatlardan foydalanuvchilar sonining oshishi, elektron operatsiyalar hajmining kengayishi va masofaviy xizmatlar ulushining ortishida aks etadi. Mazkur ko'rsatkichlar bank tizimining qanchalik tez sur'atda raqamli modelga o'tayotganini ifodalovchi muhim indikatorlar hisoblanadi.

Shu bois tijorat banklarida transformatsiya jarayonining amaliy ifodasini aniqlash maqsadida dastlab masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni dinamikasini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Ushbu ko'rsatkich bank tizimida raqamli infratuzilmaning kengayishi va mijozlar xulq-atvoridagi o'zgarishlarni aks ettiradi.

Quyida O'zbekiston bank tizimida masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar sonining 2021–2025-yillardagi o'sish dinamikasi keltirilgan.

2021–2025-yillar davomida O'zbekiston bank tizimida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. 2021-yilda jami foydalanuvchilar soni qariyb 1,45 mln nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 5,29 mln nafarga yetgan. Bu besh yil ichida qariyb 3,6 barobar o'sish kuzatilganini anglatadi.

Jismoniy shaxslar segmentida eng katta o'sish qayd etilgan: 2021-yildagi 1,37 mln foydalanuvchidan 2025-yilda 5,15 mln nafarga yetgan. Bu bank xizmatlarining keng ommaga raqamli shaklda yetkazilayotganini ko'rsatadi. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar segmentida ham izchil o'sish kuzatilgan bo'lib, bu biznes muhitining ham raqamli platformalarga moslashayotganini anglatadi (2-rasm).



2-rasm. Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni²

Mazkur dinamika tijorat banklarida texnologik va tashkiliy transformatsiya jarayonlari faollashganini tasdiqlaydi. Masofaviy xizmatlar ulushining oshishi bank filiallariga yuklamaning kamayishiga, operatsion xarajatlarning qisqarishiga va xizmat ko'rsatish tezligining oshishiga xizmat qiladi.

Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining keskin o'sishi bank tizimida raqamli infratuzilmaning kengayganini va mijozlar xatti-harakatida sifat o'zgarishlari yuz berganini ko'rsatadi. Biroq transformatsiya jarayonining to'liq samaradorligini baholash uchun faqat foydalanuvchilar soni dinamikasini tahlil qilish yetarli emas. Raqamli xizmatlarning kengayishi banklarning moliyaviy natijalarida ham o'z aksini topishi lozim.

Nazariy jihatdan masofaviy xizmatlar ulushining oshishi operatsion xarajatlarni qisqartiradi, xizmat ko'rsatish tezligini oshiradi hamda kreditlash jarayonlarini avtomatlashtirish orqali foizli daromadlarning barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Shu bois raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligini aniqlash maqsadida bank tizimining daromadlilik ko'rsatkichlarini tahlil qilish zarur hisoblanadi.

² <https://cbu.uz/uz/statistics/paysistem> Markaziy bankning ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Xususan, foizli marja, aktivlar rentabelligi (ROA) va kapital rentabelligi (ROE) ko'rsatkichlari bank tizimining moliyaviy samaradorligini ifodalovchi asosiy indikatorlar sifatida tanlandi. Mazkur ko'rsatkichlar orqali raqamli transformatsiyaning daromadlilik va rentabellik darajasiga ta'sirini baholash mumkin.

Quyidagi jadvalda 2021–2025-yillar kesimida bank tizimining daromadlilik ko'rsatkichlari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Bank tizimining daromadlilik ko'rsatkichlari³

Yillar	Foizli marja (mlrd so'mda)	ROA (% da)	ROE (% da)
2021	14048	2,2	10,3
2022	16595	1,3	6,1
2023	24162	2,5	13,3
2024	28996	2,6	14,2
2025	34192	1,4	6,6

Keltirilgan ma'lumotlar 2021–2025-yillar davomida bank tizimi daromadlilik ko'rsatkichlarida sezilarli tebranishlar kuzatilganini ko'rsatadi. Foizli marja hajmi 2021-yildagi 14 048 mlrd so'mdan 2025-yilda 34 192 mlrd so'mga yetib, barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Bu davrda foizli daromad bazasining kengaygani va kreditlash hajmining oshgani kuzatiladi. Ayniqsa, 2023–2024-yillarda foizli marjaning keskin o'sishi bank tizimida kredit operatsiyalari faollashganini ko'rsatadi.

Biroq rentabellik ko'rsatkichlari bir xil barqarorlikni namoyon etmagan. ROA 2021-yilda 2,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 1,3 foizgacha pasaygan. 2023–2024-yillarda ushbu ko'rsatkich 2,5–2,6 foiz darajasigacha tiklangan, ammo 2025-yilda yana 1,4 foizgacha kamaygan. Bu holat bank aktivlari hajmining tez o'sishi yoki operatsion xarajatlarning ortishi fonida foyda dinamikasi notekis shakllanganini anglatadi.

Shunga o'xshash dinamika ROE ko'rsatkichida ham kuzatiladi. 2021-yildagi 10,3 foizlik daraja 2022-yilda 6,1 foizgacha pasaygan, 2023–2024-yillarda esa 13,3 va 14,2 foizgacha oshgan. 2025-yilda esa 6,6 foiz darajagacha kamaygan. Kapital rentabelligining bunday o'zgarishi bank tizimida kapital hajmining kengayishi yoki sof foyda hajmidagi tebranishlar bilan izohlanadi. Foizli marjaning barqaror o'sishi bank tizimining daromad bazasi kengayayotganini ko'rsatsa-da, ROA va ROE ko'rsatkichlarining notekis dinamikasi transformatsiya jarayonining hali to'liq barqarorlashmaganini anglatadi. Ayniqsa, 2023–2024-yillar moliyaviy samaradorlik nuqtayi nazaridan ijobiy davr bo'lgan bo'lsa, 2025-yildagi pasayish bank tizimida qo'shimcha risk omillari yoki xarajatlarda bosimi mavjudligini ko'rsatishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari faol bosqichga o'tgan va bu jarayon foizli daromadlar hajmining sezilarli o'sishida o'z aksini topgan. Foizli marjaning barqaror ortib borishi kreditlash faoliyati kengayganini hamda daromad bazasi mustahkamlanganini bildiradi.

Biroq rentabellik ko'rsatkichlari — ROA va ROE — dinamikasining notekisligi bank tizimida transformatsiya jarayoni hali to'liq muvozanatlashmaganini anglatadi. Ayrim yillarda samaradorlikning pasayishi kapital hajmining o'sishi, operatsion xarajatlarda bosimi yoki risk omillarining kuchayishi bilan izohlanishi mumkin.

Shunday qilib, raqamli infratuzilmaning kengayishi daromadlar hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa-da, uning moliyaviy samaradorlikka ta'siri barqaror va izchil mexanizm sifatida shakllanishi uchun qo'shimcha institutsional va boshqaruv choralari talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy hamda statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tijorat banklarida raqamlashtirish jarayoni faol transformatsion bosqichni bosib o'tmoqda. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining keskin o'sishi bank tizimida texnologik infratuzilmaning kengayganini va mijozlarga xizmat ko'rsatish modelining sifat jihatdan o'zgarganini tasdiqlaydi. Moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili esa foizli daromadlar hajmi sezilarli oshganini ko'rsatadi, bu kreditlash faoliyati va daromad bazasining kengayganidan dalolat beradi. Biroq ROA va ROE ko'rsatkichlarining notekis dinamikasi transformatsiya jarayoni hali to'liq muvozanatlashmaganini, ayniqsa kapitaldan foydalanish samaradorligi va xarajatlarni optimallashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini anglatadi.

Shu munosabat bilan tijorat banklarida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida bir qator amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, raqamli kredit skoring va risk-baholash tizimlarini yanada takomillashtirish orqali aktivlar sifati ustidan nazoratni kuchaytirish zarur. Shuningdek, IT-investitsiyalarning natijadorligini baholovchi ichki monitoring mexanizmlarini joriy etish va

3 <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats> Markaziy bankning ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



operatsion xarajatlarni qisqartirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Filial tarmog'ini optimallashtirish, jarayonlarni avtomatlashtirish va komission daromadlar ulushini oshirish orqali daromadlar diversifikatsiyasini ta'minlash banklar moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, raqamli muhitda kiberxavfsizlik va ma'lumotlar himoyasi tizimini kuchaytirish transformatsiya jarayonining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, raqamli transformatsiya tijorat banklari faoliyatining strategik rivojlanish yo'nalishi bo'lib, uning samarali boshqarilishi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, aktivlar sifatini yaxshilash va bank tizimining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. World Bank. Digital Financial Services. Washington, DC: World Bank Publications, 2022.
2. Bank for International Settlements. Sound Practices: Implications of Fintech Developments for Banks and Bank Supervisors. Basel: BIS, 2018.
3. International Monetary Fund. Financial Stability Implications of Fintech. IMF Staff Discussion Note, 2017.
4. Frederic Mishkin. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. 11th ed. Pearson Education, 2016.
5. Douglas W. Diamond. Financial Intermediation and Delegated Monitoring // Review of Economic Studies, 1984.
6. Thorsten Beck. Banking and Competition in Financial Markets // Journal of Financial Perspectives, 2018.
7. www.cbu.uz ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
